

## 2022– yilning yanvar–mart oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiyligi hajmi 2 950,7 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2 888,2 mlrd. so'mni (103,2 %), o'rmon xo'jaligi – 34,7 mlrd. so'mni (101,5 %), baliqchilik xo'jaligi – 27,8 mlrd. so'mni (115,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 8,8 % ni tashkil etdi.





## Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, % da

01



Dehqonchilik  
va chorvachilik,  
ovchilik va ushbu  
sohalarda ko'rsatilgan  
xizmatlar – **103,2 %**

02



O'rmon xo'jaligi  
**101,5 %**

03



Baliqchilik xo'jaligi  
**115,4 %**

2022- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 103,2 % ni, o'rmon xo'jaligi – 101,5 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 115,4 % ni tashkil qildi.

**Ma'lumot uchun:**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022– yilning yanvar- mart oylarida tarmoqning ijobjiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2021 – yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

- ✓ Sabzavotlar jami — 182,1 %
- ✓ Ovlangan baliq — 115,5 %
- ✓ Qirqib olingan jun — 105,5 %
- ✓ Go'sht (Tirik vaznda) — 102,8 %
- ✓ Sog'ib olingan sut — 102,0 %



**Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi**



Dehqonchilik  
va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda  
ko'rsatilgan xizmatlar

97,9 %

O'rmon xo'jaligi

1,2 %


Baliqchilik xo'jaligi

0,9 %

2022- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining 97,9 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2021- yilning yanvar – mart oylarida 98,0 %), 1,2 % i - o'rmon xo'jaligi (1,2 %), 0,9 % i baliqchilik xo'jaligi (0,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.



**Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik  
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi**



2022– yilning yanvar– mart oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Buxoro (371,0 mlrd. so'm) va Jondor (353,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (11,0 mlrd. so'm), Buxoro shahri (63,0 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumani (92,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,2 %) yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahar (289,7 %), Qorovulbozor (132,4 %), Romitan (105,7 %), Kogon (104,5 %) Shofirkon (104,3 %) va Buxoro (103,6 %) tumanlarida kuzatildi. Peshku (100,1 %), G'ijduvon (100,3 %), Jondor (100,4 %), Vobkent (100,6 %), Qorako'l (100,7 %), Buxoro shahri (101,5 %) va Olot (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



### Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 868,1 mlrd. so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 208,7 mlrd. so'mni (128,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 659,4 mlrd. so'mni (101,7 %) tashkil qildi.



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)



7,3 %

Dehqonchilik  
mahsulotlari



92,7 %

Chorvachilik  
mahsulotlari





Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

01 ► Qorovulbozor

02 ► Buxoro sh.

03 ► Buxoro

Kogon sh. ◀ 01

Vobkent ◀ 02

Olot ◀ 03



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi  
mahsulotlarining xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



88,0 %

Dehqon  
(shaxsiy yordamchi)  
xo'jaliklari



7,1 %

Fermer  
xo'jaliklari



4,9 %

Qishloq xo'jaligi  
faoliyatini amalga  
oshiruvchi tashkilotlar

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajmining 88,0 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,1 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,9 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




*Ma'lumot uchun:*

Asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 92,9 %
- ✓ Sog'ib olingan sut — 93,4 %
- ✓ Tuxum — 50,0 %
- ✓ Qorako'l teri — 91,2 %



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining  
hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida  
taqsimlanishi, (% da)**



2022-yilning yanvar– mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (23,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (98,3 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (76,2 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Vobkent tumanida (1,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Kogon shahrida

(23,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shofirkon tumanida (0,2 %) qayd etildi.




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab  
chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi**


**Dehqonchilik mahsulotlari**



**39,8**




**20,7**




**39,5**


**Chorvachilik mahsulotlari**



**4,6**



**93,2**



**2,2**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




## Dehqonchilik


2022 – yilning yanvar – mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 208,6 mlrd. soʻmni yoki 2021 – yilning mos davriga nisbatan 128,4 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiylajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,3 % ni tashkil qildi.

### Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



Oʼsish surʼati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xoʼjalik toifalari boʼyicha taqsimlanishi



Fermer xoʼjaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʼjaliklari


Qishloq xoʼjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 9,1 ming t. sabzavotlar (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 82,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 31,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.




### Hududlar bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish

**hajmi, tonna**




**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**





## Chorvachilik

2022–yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 659,5 mlrd. so‘mni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.


2022–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 48,9 ming t. go‘sht (2021–yilning yanvar – martiga nisbatan 2,8 % ga ko‘p), 196,7 ming t. sut (2,0 % ga ko‘p), 77,8 mln. dona tuxum (6,8 % ga kam), 115 tonna jun (5,5 % ga ko‘p), 146,0 ming dona qorako‘l teri (0,2 % ga ko‘p) yetishtirildi va 1 ,3 ming t. baliq (15,5 % ga ko‘p) ovlandi.

### **Go'sht (tirik vaznda)**


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2022- yilning yanvar - mart oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 45,4 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 92,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2021- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2022- yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 0,2 % va fermer xo'jaliklarda 29,1 % o'sish kuzatildi.




**Hududlar bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish**

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



**Yuqori ulushga ega hududlar**

Buxoro tumani	12,1 %
Jondor tumani	11,6 %
Kogon tumani	10,9 %
Shofirkon tumani	10,2 %


**Past ulushga ega hududlar**

Kogon shahri	0,8 %
Buxoro shahri	2,0 %
Qorovulbozor tumani	2,8 %
Peshku tumani	6,0 %




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 183,7 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 93,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.


2022- yilning yanvar- mart oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 0,4 ming t. yoki umumi yetishtirish hajmidan 0,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2021- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 16,5 % va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 1,2 % o'sish kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha sut yetishtirish

**hajmi, ming tonna**



**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**



Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
Jondor tumani	13,0 %	Kogon shahri	0,01 %
Buxoro tumani	12,4 %	Qorovulbozor tumani	0,8 %
Shofirkon tumani	11,2 %	Buxoro shahri	0,9 %
G'ijduvon tumani	10,7 %	Kogon tumani	5,3 %




## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 38,9 mln.dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 50,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.


2022- yilning yanvar- mart oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 14,8 mln. dona yoki umumi yetishtirish hajmidan 19,0 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 3,4 % o'sish kuzatildi.




## Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

**hajmi, mln. dona**




**Viloyatning umumiy hajmiga  
nisbatan ulushi**




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani <b>26,7 %</b>	Kogon shahri <b>0,3 %</b>
Kogon tumani <b>23,5 %</b>	Buxoro shahri <b>0,5 %</b>
Buxoro tumani <b>9,3 %</b>	Qorovulbozor tumani <b>1,2 %</b>
Qorako'l tumani <b>9,2 %</b>	Peshku tumani <b>3,8 %</b>



## Baliq



### **Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 1 079,7 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 84,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2022- yilning yanvar - mart oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 94,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 7,4 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.

2021- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 13,3 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 1,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 17,4 % o'sish kuzatildi.



## Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Shofirkon tumani 36,7 %	Kogon shahar 0,0 %
Buxoro tumani 14,8 %	Buxoro shahar 0,0 %
Olot tumani 11,6 %	Kogon tumani 1,1 %
Peshku tumani 9,4 %	Vobkent tumani 1,5 %



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2022–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 14,8 % i fermer xo'jaliklariga, 80,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiyligini sonidan 34,6 % i fermer xo'jaliklariga, 54,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 11,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 27,9 % i fermer xo'jaliklariga, 51,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 280,1 mingtaga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 34,5 mingtaga (2,8 %) ko‘paydi.

### **Yirik shoxli qoramollar**


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**


**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Hududlar bo'yicha  
yirik shoxli qoramollarning  
umumiyl bosh soni, ming bosh**



**Viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soniga  
nisbatan hududlarning ulushi**




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 409,9 mingtaga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 10,9 mingtaga (2,7 %) ko‘paydi.

### Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha  
sigirlarning umumiyl  
bosh soni, ming bosh**



**Viloyat bo'yicha sigirlarning umumiyl bosh soniga  
nisbatan hududlarning ulushi**




2022– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 268,7 mingtaga yetdi.


2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilarni bosh soni – 28,1 mingtaga (1,3 %) ko‘paydi.

### **Qo‘y va echkilarni**


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarni bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha  
qo'y va echkilarning umumiyligi  
bosh soni, ming bosh**



**Viloyat bo'yicha qo'y va echkilarning umumiyligi bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi**




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 6 689 taga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 279 taga (4,4 %) ko‘paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 54,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



**Hududlar bo'yicha  
otlarning umumiy  
bosh soni, bosh**



**Viloyat bo'yicha otlarning umumiy bosh soniga  
nisbatan hududlarning ulushi**




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 690,9 mingtaga yetdi.


2021–yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 99,0 mingtaga (1,8 %) ko‘paydi.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O’sish sur’ati**



**Jami bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**



**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**


**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2022–yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g’risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 51,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g’ri kelishini qayd etish lozim.



**Hududlar bo'yicha  
parrandalarning umumiy  
bosh soni, ming bosh**



**Viloyat bo'yicha parrandalarning umumiy bosh  
soniga nisbatan hududlarning ulushi**



**Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi**



- 65- 223-44-45
- 65- 220-83-07